
TOSHLOQLIK YURTDOSHIMIZ “SHUHRAT” MEDALI BILAN TAQDIRLANDI

Mamlakatimizda mo‘tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko‘rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o‘zining samarali mehnati, boy tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgan, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shayotgan bir guruh xotin-qizlar yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi. Quvonarlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, Toshloq tumanidagi «Zamin Aziya Farm» mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi Koshipjonova O‘ktamxon Salimovna «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi. O‘ktamxon Koshipjonovani ushbu mukofot bilan muborakbod etamiz.

2024-03-06 09:37:25